

Drying of the Aral Sea and changes in the landscape of the Aral Sea region

Sobirov Javokhir Khairulla o'glu
Student of Urgench State University
Khudarganova Dildora Kuzibayevna
Student of Urgench State University
Abdullayeva Maftuna Bahodir qizi
Student of Urgench State University

Orol dengizi qurishi va Orolbo'yi mintaqasi lanshaftlarining o'zgarishi

Sobirov Javoxir Xayrulla o'g'li
Urganch davlat universiteti talabasi
Xudarganova Dildora Kuzibayevna
Urganch davlat universiteti talabasi
Abdullayeva Maftuna Bahodir qizi
Urganch davlat universiteti talabasi

Annotation: This article discusses the changes in the landscape of the Aral Sea region due to the drying up of the Aral Sea. It also provides information on the causes of landscape changes in the Aral Sea region and the flora and fauna of the landscapes. The article also provides information on the landscape of the Aral Sea region before the drying up of the Aral Sea. The article is based on a comparison of data from different databases and books, as well as feedback from the authors of the article on landscape change.

Keywords: island sea, landscape, chink, ephemeral and ephemeroids, urochishe, geographical location, ecological balance,

Annotasiya: Ushbu maqolada orol dengizining qurishi tufayli Orolbo'yi mintaqasi lanshaftlarining o'zgarishi haqida so'z boradi. Shuningdek Orolbo'yi mintaqasining lanshaftlari o'zgarishi sabablari hamda lanshaftlarda tarqalgan o'simlik va hayvonot dunyosi haqida ma'lumotlar ham berilgan. Maqolada shuningdek orol dengizining qurishidan oldin Orolbo'yi mintaqasi lanshaftlarining qanday bo'lganligi haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin. Maqola turli xil ma'lumotlar bazalari va kitoblardagi ma'lumotlarni bir biriga taqqoslab hamda lanshaftlarning o'zgarishi haqidagi maqola mualliflarining fikr mulohazalaridan kelib chiqqan holda yozilgan.


Kalit so'zlar: orol dengizi, lanshaft, chink, efemer va efemeroidlar, urochishe, geografik o'rin, ekologik muvozanat,

Kirish:

Landshaft (nemischa. Land — yer, schaft — manzara) — tipologik tabiiy komplekslarni umumlashtiruvchi tushuncha: geologik zamini, relyefi, iqlimi, tuproqlari, o'simlik turkumi, hayvonot dunyosi, gidrologik rejimining bir xilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaraga ega bo'lgan hudud. Landshaftshunoslikda lanshaftlarning 3 xil tushunchasi mavjud. Regional, tipologik va umumiy lanshaftlarga bo'linadi. Maqolada orol dengizi va Orolbo'yi mintaqasining yangidan hosil bo'lgan lanshaftlari hamda ilgari ham mavjud bo'lgan lekin orol dengizining qurishi natijasida o'zgarishga uchragan lanshaftlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Ushbu rasmda orol dengizining qurishini yillar kesimida ko'rishimiz mumkin. Eng boshida oldingi ko'rinishi va eng oxirida hozirgi kundagi ko'rinishi[1].

1-rasm



Asosiy qism: Orol dengizi — O'rta Osiyodagi eng katta berk ko'l. Ma'muriy jihatdan Orol dengizining yarmidan ko'proq janubi-g'arbiy qismi O'zbekiston (Qoraqalpog'iston), shimoli-sharqiy qismi Qozog'iston hududida joylashgan. O'tgan asrning 60-yillarigacha Orol dengizi maydoni orollari bilan o'rtacha 68,0 ming km² ni tashkil etgan. Kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi (Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin), Yevrosiyo materigida (Kaspiydan keyin) ikkinchi o'rinda edi. Dengiz shimoli-sharqdan janubi-g'arbiga cho'zilgan uzunligi 428 km, eng keng joyi 235 km bo'lgan. Havzasining maydoni 690 ming km², suvining hajmi 1000 km³, o'rtacha chuqurligi 16,5 m atrofida o'zgarib turgan. Havzasining kattaligi uchun dengiz deb atalgan. Orol dengizi yuqori plitsenda Yer po'stining egilgan yeridagi botiqda hosil bo'lgan[2].

Orol dengizining qurishi bilan orol bo'yida mavjud bo'lgan ekologik muvozanat ham izdan chiqdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ekologik muvozanat — inson, o'simlik va hayvonlar uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoitlar muvozanati. Ma'lumki, tabiat komponentlari bir-birlari bilan uzviy bog'langan, doim o'zaro aloqada va ta'sirdadir. Ular komponentlar o'rtasida muttasil ravishda ro'y berib turadigan modda va energiya almashinuvi oqibatida hosil bo'ladi va tabiatning bir butunligini ta'minlaydi. Tabiat komponentlari o'rtasidagi bunday o'zaro ta'sir va aloqalar uzoq geologik davrlar mobaynida rivojlanib, turli joylarda turli ekosistemalarni shakllanishiga olib kelgan.

Sababi orol dengizining mavjudligi tufayli nafaqat orol bo'yi mintaqasida balki butun Quyi Amudaryo okrugida orolning ta'siri tufayli ko'plab muammolarni oldi olinib turgan edi. Orolning qurishi bilan bog'liq holda orol bo'yi mintaqasi lanshaftlarida ham o'zgarishlar ro'y berdi.

Orol dengizining qurishi bilan yangi hudud ya'ni orolni suvsiz qismi alohida okrug sifatida ajratiladigan bo'ldi ya'ni Orol tabiiy geografik okrug. Orol tabiiy geografik okrugining atrofi asosan g'arbiy qismida tik yonbag'irlar chinklar orqali Ustyurt va Quyi Amudaryo okruglari va shu okruglarning lanshaft hududlaridan ajralib turadi.

Orol tabiiy geografik okrug hududi butunlay cho'l zonasi doirasida joylashgan. Bu yerda O'rta Osiyo landshaftlari ichida eng yosh hisoblangan, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yangi landshaftlar vujudga kelmoqda. Ularning shakllanishi, tuzilishi, ko'rinishining o'zgarishi hozirgi vaqtda ham davom etmoqda. Bu landshaftlarning qo'shni okruglar landshaftlaridan farqi shundaki, hududda dengiz morfoskulpturalari shakllangan va rivojlanmoqda. Hozirgi relyefni golotsen dengizi va 1960 yildan keyin dengiz suvi o'rnidan bo'shagan birlamchi dengiz tekisliklariga bo'lishimiz mumkin. Shu sababli Orol tabiiy geografik okrug landshaftlarini qadimgi va hozirgi dengiz tekisliklari toifasiga ajratildi. Hozirgi dengiz tekisliklari yoshi, yuzasining oz yoki ko'p parchalanganligi orqali bir-biridan ajralib turadi.

Landschaftlar hosil bo'lishi joyning past-balandligiga bog'liq holda, dastlab nisbatan baland bo'lgan va suvdan bo'shagan yerlarda kuzatilmoqda. Shunga binoan landschaftlar odatda uzunasiga ketgan lentasimon shaklga ega bo'lib, qirg'oq chizig'iga parallel ravishda joylashganligini kuzatish mumkin. O'tgan 50 yildan ortiq vaqt davomida landschaftlarning bosqichma-bosqich shakllanishi ro'y bermoqda ya'ni landschaftlar doimo o'zgarishda bo'ladi orol bo'yi mintaqasidagi landschaftlar ham o'zgarishda davom etmoqda. Hududdagi landschaftlarning shakllanishini 3 ta bosqichga ajratish mumkin:

- shakllanishning boshlang'ich bosqichi (qurigandan keyingi 1-5 yilgi vaqt)
- shakllanish davom etayotgan bosqich (6 - 20 yil).
- landschaftlarning nisbatan shakllanib ulguragan bosqichi (21 - 45 yil)

Shakllanishning boshlang'ich bosqichidagi landschaftlar quriyotgan dengiz bo'ylab joylashgan juda yosh, hali strukturasi shakllanib ulgurmagan landschaftlar hisoblanadi. Yangi qirg'oq chizig'idan kengligi 2-4 km bo'lgan maydonlarda 1-2 yilda marsh sho'rxoklari shakllanib, grunt suvlari 30-70 sm chuqurlikda yotadi, tuproq profili barcha chuqurliklarida nam. 3-5 yil vaqt o'tgandan keyin marsh sho'rxoklarining dengizbo'yi sho'rxoklariga aylanishi kuzatilmoqda. Dengiz suvidan bo'shaganiga 8-10 yil bo'lgan yerlarda dengiz bo'yi qumli sho'rxoklari hosil bo'lib, taxminan 1 m chuqurlikkacha sho'rsizlanmoqda va bu landschaftlar 10-20 % gacha siyrak holda o'simlik bilan qoplanganligi aniqlangan [4].

Nisbatan shakllanib ulguragan landschaftlar tub qirg'oqqa (sharqiy sohillarga, Amudaryo va Sirdaryo deltalariga) yaqin bo'lgan kengligi, 50-70 km masofadagi landschaftlar bo'lib, ular O'rta Osiyoning qumli cho'llariga xos bo'lgan asosiy landschaft hosil qiluvchi omillar va belgilar bilan rivojlanmoqda. Shunday bo'lishiga qaramasdan bu landschaftlar qumli cho'l landschaftlariga o'xshamasligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va bu hududda shakllanayotgan landschaftlarni Qizilqum va Qoraqumda paleogen dengizining chekinishi natijasida hosil bo'lgan landschaftlarga o'xshatish mumkin. Ularni xaritaga tushirish va xo'jalikda foydalanish yo'llarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.[3]

Landschaftlar bir biridan turli xil xususiyatlari bilan farq qiladi. Orol dengizining qurigan tubida eng katta maydonni egallagan sho'rxok joylarda katta miqdorda osh tuzi va boshqa tuzlarning zahiralari ko'p. Bu zahiralarning foydalari ham zarar yetkazadigan tomonlari ham ko'p. Shamol ta'sirida orol dengizining tubidagi tuzlar butun atrofga yoyilib katta miqdorda zarar yetkazmoqda. Shunday zararlarni oldini olish maqsadida hozirgi kunda orol dengizining qurigan tubida antropogen landschaftlar hosil qilinmoqda. Katta katta maydonlarga saksovul, yulg'un ekilib qum va tuz ko'chishini oldi olinmoqda. O'zi orolning suvdan bo'shagan qismida tabiiy holda o'sadigan efemer va efemeroid o'simliklar ham urochishe miqdordagi hududlarda chang va tuzni ko'chishini oldini olishga yordam beradi.

Xulosa: Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki orol dengizining qurishi tufayli paydo bo'lgan orol tabiiy geografik okrugining landschaftlari mavzusida maqola yozishdan maqsad shuki, birinchidan orol dengizining qurigan tubida cho'l sho'rxok landschaftini o'rniga saksovulzorlarni kengaytirib to'qay landschaftini tashkil etish orqali hududda qo'riqxonalar yoki milliy bog' hamda pitomniklar tashkil etish orqali yo'q bo'lish arafasidagi hayvonlarni ko'paytirish. Ikkinchidan ushbu hududlarda hozirgi kungacha saqlanib qolgan Amudaryoning quyi qismidagi kichik kichik ko'llarni asl xolicha saqlab qolish va ular orqali oroldan ko'tarilgan tuzlarning ma'lum miqdorda ushlab qolishga yordam beradi. Uchinchidan, dengizdan bo'shab qolgan hududlarda turizmni rivojlantirish, ekstremal sport ishqibozlari uchun maxsus hududlar tashkil qilish va boshqalar. Orolning qurigan hududlarida turli xil loyihalarni amalga oshirish mumkin bunday loyihalar ham juda ko'p bo'lib ulardan eng asosiylarini amalga tatbiq etish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <https://daryo.uz/2013/08/27/qurib-borayotgan-orol-dengizi-internet-sayti>.
2. <https://meros.uz/object/orol-dengizi-internet-sayti>.
3. Orol tabiiy geografik okrugi. Sh.S.Zokirov. R.A.Ibragimova. Toshkent" Mumtoz so'z" - 2015. 61-62, 68 - betlar.
4. Гальков Ч.В. О применении фоновых значков при составлении ландшафтной карт. Вопросы физической и экономической географии Узбекистана. Науч. тр. ТашГУ. - Ташкент, 1967. - вып. 310. - С. 69-74.